

Toshboyeva Aziza Elomon qizi
SHDPI Tillar fakulteti, O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi talabasi
Ilmiy rahbar: Ma'suma Mo'minova
SHDPI Tillar fakulteti o'qituvchisi

DIKTANT TURLARI VA ULARNI MAZMUNI

Annotatsiya: Bu maqolada Boshlang'ich sinf o'quvchilarini diktantlar orqali insho, bayon yozishga tayyorlash haqida umumiyligi ma'lumot berilgan. Uning orqali Boshlang'ich sinf o'quvchilariga qanday diktantlar olinishi, ulardan qanday foydalanish va qanday vaqtida qo'llanish misollar bilan ko'rsatilgan. Maqolada Boshlang'ich sinf o'quvchilaridan olinadigan diktant turlari orqali o'quvchilar qanday yutuqlarga erishishi, bu turdag'i diktantlarni yozishda o'quvchilar qanday xatolarga yo'1 qo'yishlari ochib berilgan. Shuningdek, boshlang'ich sinf o'quvchilaridan diktantlarni olishni tahlil qilib berishni ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: So'z, gap, matn, diktant, ta'limiy diktant, tekshiruv diktant, o'z diktant, yoddan yozuv diktanti, izohli diktant, saylanma diktant, erkin diktant, rasm diktant, lug'at diktant, ijodiy diktant.

АННОТАЦИЯ: В этой статье представлена общая информация о подготовке учащихся начальной школы к написанию сочинений и высказываний под диктовку. С его помощью учащимся начальной школы показывают, как брать диктанты, как их использовать и когда использовать с примерами. В статье раскрывается, как учащиеся добиваются успехов с помощью видов диктанта, взятых у учащихся начальных классов, и какие ошибки допускают учащиеся при написании этого вида диктанта. Также показано для анализа снятие диктантов у учащихся младших классов.

Ключевые слова: Слово, предложение, текст, диктант, учебный диктант, обзорный диктант, собственный диктант, диктант наизусть, аннотированный диктант, факультативный диктант, произвольный диктант, диктант с картинками, словарный диктант, творческий диктант.

ANNOTATION: This article provides general information about preparing elementary school students to write essays and statements through dictation. Through it, elementary students are shown how to take dictations, how to use them and when to use them with examples. The article reveals how students achieve success through the types of dictation taken from primary school students, and what mistakes students make when writing this type of dictation. It is also shown to analyze the taking of dictations from elementary school students.

Keywords: Word, sentence, text, dictation, educational dictation, review dictation, own dictation, memorized dictation, annotated dictation, optional dictation, free dictation, picture dictation, vocabulary dictation, creative dictation.

KIRISH

O'quvchilar savodxonligini oshirishda diktant mashqlari foydaliroq mashqlardan biri hisoblanadi. Diktant o'rganish jarayonida o'quvchilarining imkoniyatlarini hisobga oladi, ishda aniqlik va sodda qilib muammolarga yechishga imkon beradi. Shuningdek, o'quvchilarni o'zlarini tekshirish uchun odatlantirish ham zarurdir. Diktant o'tkazishda, o'quvchilar so'zning harfiy ifodasini ko'rmay, eshitish sezgisi orqali tovushlar majmuasini tasavvur etib, tovushlarni harflar bilan

yozadi. Bu jarayonda psixologik va fiziologik jarayonlar birgalikda harakatlanadi, shuning uchun diktant imlo o'rgatishda o'z tabiatiga ko'ra to'la ta'limi yozma ish sifatida hisoblanadi.

Diktantlar boshlang'ich sinf o'quvchilarining savodxonligini oshirishda juda foydali bo'lib, ularning imkoniyatlarini hisobga olish, ishda aniqlikka e'tibor berish, soddadan murakkabga borish muhim ahmiyatga egadir. Diktant o'tkazish jarayonida o'quvchilar o'zlarini tekshirishga odatlantiriladi, bu esa ularning o'zlarini mustahkamlaydi va xatolarini aniqlab chiqarishga yordam beradi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

O'quvchilar diktant yozish jarayonida so'zning harfiy ifodasini ko'rmay, eshitish sezgisi orqali tovushlar majmuasini tasavvur etadi va tovushlarni harflar bilan almashlab yozadi. Bu, ularning psixologik va fiziologik jarayonlari bilan birgalikda harakatlanishiga imkon beradi, shuning uchun diktant imlo o'rgatishda o'z tabiatiga ko'ra to'la ta'limi yozma ish hisoblanadi.[1]

Diktant ko'chirib yozishdan eshituv o'quvi orqali qabul qilinishi bn farq qiladi. O'zbek tili orfagirafiyasi qoidalari faqat fonetik prinsip asosidagina emas, balki juda kup so'zlar morfologik prinsip asosida ham yozilishi sababli faqat diktant orqali o'quvchilarini savodxon qilish mumkin emas. Uslubchilar o'zlarining diqqat e'tiborini diktantni orfagirafik mashqlarning foydali turiga aylantirishga qaratib, uning juda kup turlarini ishlab berdilar.

Diktantlar ikki turga bo'linadi:

I. Ta'limi diktant: Bu tur diktantlar o'rganilgan mavzularni mustahkamlash maqsadida o'quv darsining bir qismida o'tkaziladi. Bu diktantlar turli shakllarda bo'lishi mumkin, masalan, ta'kidiy diktant, o'z diktant yoki yoddan yozuv diktanti, izohli diktant, saylanma diktant, erkin diktant, rasm diktant, lug'at diktant, ijodiy diktant kabi.

II. Tekshiruv diktanti: Bu tur diktantlar esa yaqinda yoki ilgari o'rganilgan mashqlar bilan mustahkamlangan qoidalarni o'quvchilar qanchalik o'zlashtirganliklarini aniqlaydi. Tekshiruv diktanti biror bo'lim o'rganilgandan so'ng yoki chorak oxirida o'tkaziladi. Ular o'quv yili davomida 5-6 marta o'tkaziladi va xatolar chuqur tahlil qilinadi, ularni bartaraf qilish usullari belgilanadi. Tekshiruv diktantining ta'limi ahmiyati katta, chunki bu diktantlar o'quvchilarining xatolarini aniqlash va ularni mustahkamlash uchun juda samarali bo'ladi.[2]

Ta'limi diktantlar o'rganilgan mavzularni mustahkamlash maqsadida o'tkaziladi va ularning turlari quyidagilardir: ta'kidiy, o'z diktant, izohli, saylanma, erkin, rasm, lug'at, va ijodiy diktantlar. Saylanma, erkin va ijodiy diktantlarda matn ma'lum o'zgarishlar bilan yoziladi. Tekshiruv diktanti o'quv yili davomida mustahkamlangan qoidalarni o'quvchilar qanchalik o'zlashtirganliklarini aniqlab beradi.

O'z diktant yoki yoddan yozuvda o'rganilgan imlo qoidasi asosida yoziladigan so'zlar bo'lgan matnni o'quvchilar o'zlarini tekshirish uchun yozishadi yoki o'qituvchi rahbarligida eshitib yodlaydilar, keyin o'zlarini yozishadi. Izohli diktant o'quvchilarining qobiliyatiga qarab ikki xil o'tkaziladi.

Saylanma diktantda diktovka qilingan gaplar yoki matnning bir qismini yozmaydilar, ularning o'qituvchining topshirig'iga mos qisminigina yozishadi. Erkin diktantda o'qiwchilarga mazmunni buzmay, gap tuzilishini o'zgartirish, yoki so'zni yaqin ma'noli so'z bilan almashtirish erkinligi beriladi.[3]

Rasm diktantda predmet rasmini ko'rsatib o'tkaziladi, va o'quvchilar uning nomini aytdilar, so'zni yozish shu tartibda amalga oshiriladi. Bayon o'quvchilarning lug'atini boyitish va bog'lanishli nutqini o'stirishda qaratilgan mashq turlaridan biri hisoblanadi.

Ushbu maqolada tekshirish diktanti haqida ma'lumotlar berilgan. Bu diktant turi o'rganilganlarni o'quvchilar qanchalik o'zlashtirganlarini sinash, tekshirish maqsadida o'tkaziladi. Lug'at diktanti o'rganilgan imlo qoidalari bilan yozuvni mustahkamlash, o'quvchilarning so'z bo'yligini oshirish maqsadida o'tkaziladi. Buning tashqari, o'rgailgan imlo qoidalari o'quvchilar tomonidan qanchalik o'zlashtirganlarini sinash, hisobga olish maqsadida ham otkazilishi mumkin.[4]

Lug'at diktantining o'qitish uslubi uchun o'rganilgan imlo qoidasi asosida yoziladigan so'zlar, so'z birikmalari yoki turli narsalar va ularning rasmlaridan foydalaniladi. Agar tayyor so'zlar yozdiriladigan bo'lsa, ularning ma'nosi, talaffuzi va yozilishi suhabat orqali izohlanib tushuntiriladi. Diktantda turli narsalar yoki ularning rasmlaridan foydalaniladigan bo'lsa, ular tanlangan narsa rasmlari yoki o'zi tartib bilan o'quvchilarga ko'rsatiladi. O'quvchilar rasmida ifodalangan narsa nomini yozib, vergul qo'yadilar. Matnning birinchi so'zi bosh harf bilan yoziladi va oxirgi so'zdan keyin nuqta qo'yilishi ta'kidlanadi. O'quvchilar yozganlarini imlo lug'atiga yoki o'zlarining lug'at daftarlari solishtirib tekshiradilar.[5]

Saylanma diktanti o'rganilgan grammatik va imlo qoidalari mustahkamlashga, ularni amalda qo'llashga yordam berish bilan o'quvchilar mavzuni qanchalik o'zlashtirganliklarini aniqlashga ham imkon beradi. Bu diktantda o'quvchi o'qituvchi aytgan matnning yoki gapning hammasini yozmay, o'rganilgan qoidalari asosida yoziladigan so'zlar yoki so'z birikmalari aniqlanadi, shuning uchun ham bu diktantga "saylanma diktant" deyiladi.[6]

Ko'rsatish diktanti boshlang'ich sinf o'quvchilarining hammasida o'tkaziladi. Matn bir marta shoshmasdan ifodali qilib o'qib beriladi, so'ng matn ustini parda bilan berkitib, suhabat yordamida tushuntiriladi va o'rganilgan qoidalari eslatilib, matn mazmuni mustahkamlanadi. Matn aytib yozdirilgandan so'ng, o'quvchilar yozganlarini yozuv taxtasidagi yozuvga taqqoslab, xatolarini to'grilaydilar.

O'z diktant yoki yoddan yozuv esa boshlang'ich sinf o'quvchilarining hammasida o'tkaziladi. Ushbu diktant turi o'quvchilarga matnni o'ylash va mustaqil yozish imkonini beradi. O'quvchilar matnni o'quvchining o'qishidan yodlab, mustaqil yozishadi.[7]

XULOSA

Diktantlar va ularning turli shakllari haqida yetarlicha ma'lumotga ega bo'lgan boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'z faoliyatlar davomida ulardan muntazam foydalanishlari, ularning o'quvchilarni savodxonligini oshirishda va imlo jarayonini mustahkamlashda muhim rol o'ynashini bilib, ularga nur ustiga a'lo nur bo'ladi. Diktantlar o'quvchilarga lug'atda o'rganilgan imlo qoidalari va grammatik qoidalari o'rganishda yordam beradi. Shuningdek, diktantlar o'quvchilarni aniqlik va ehtiyojkorlik bilan ishlashga odatlantiradi. Bu esa ularning yozuv bo'yicha mustahkam bilim olishi va yaxshi yozish qobiliyati rivojlanishi uchun juda muhimdir. Boshlang'ich sinf o'qituvchilari diktantlar orqali o'quvchilarning imlo bilimini tashkil etish, yaratish va mustahkamlashda asosiy vositalardan birini topishlari mumkin. Bu esa ularga o'z faoliyatlarida mufassal va samarali yordam beradi, shuningdek, o'quvchilarning til va yozuv ustadirli bo'lishiga yordam beradi.

REFERENCES

1. K. Qosimova „ Ona tili o'qitish metodikasi " Toshkent „NOSHIR" 2009

2. Q.Abdullayeva „Diktantlar to‘plami“ Toshkent (VEKTOR-PRESS) 2011